

# MAHSULOTLAR ETKAZIB BERISHGA OID SHARTNOMA №14

Bulungur sh

« 06 » iyul 2022 yil

"Yupiter zar" MCHJ keyingi o'rirlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. o'zining ustavi asosida ish yurituvchi direktor Bakaev Doston nomidan bir tomondan va Bulung'ur tuman Xalq ta'limi bo'limi, keyingi o'rirlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi mudir Z.Aliqulova nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga Mebel jihozlari etkazib berish (keyingi o'rirlarda - "Mahsulotlar" deb yuritiladi) ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Mahsulotlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Mahsulotlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlarini mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

Nº	Mahsulotlar nomi	O'lchov birligi	miqdori	narxi	Summasi
1	Kitoblar uchun stellaj	dona	100	567395,05	56739505
2	O'quvchilar uchun stol stul jamlanmasi (1-4-sinflar uchun)	komplekt	175	595800	104265000
3	O'quvchilar uchun stol stul jamlanmasi (5-11-sinflar uchun)	komplekt	95	633621	60193995
4	Doska	dona	15	1418600	21279000
<b>JAMI</b>					<b>242477500</b>

## 2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 2.1. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Mahsulotlar" "Buyurtmachi"ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Mahsulotlar"ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. zarur sifatga ega bo'lmagan "Mahsulotlar"ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

- zarur sifatga ega bo'lmagan "Mahsulotlar"shunga o'xhash "Mahsulotlar" bilan almashtirilishini;
- "Mahsulotlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;
- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish

2.1.5. Shartnomaga shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

### 2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

2.2.1. "Mahsulotlar"ni 2022 yilda byudjet mablag'lari doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnomaga tuzish;

2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Mahsulotlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3. "Mahsulotlar"ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik boshqarmasi ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng 5 ish kuni mobaynida haq to'lash.

### 2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Etkazilgan "Mahsulotlar"uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq etkazilgan "Mahsulotlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

### 2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng "Mahsulotlar"ni ko'rsatish;

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Mahsulotlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar "Mahsulotlar"ni etkazish jarayonida "Bajaruvchi" shartnomaga shartlari va normativlardan chekinishga yo'il qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 1 kun muddatda tekin tuzatib berish.

## 3. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Shartnomaning umumiy summasi **242 477 500** (ikki yuz qirq ikki million to‘rt yuz etmish etti ming besh yuz) so‘m deb belgilandi. Bajariladigan ishlar (xizmatlar) uchun oldindan to‘lov miqdori 30 % ni tashkil kiladi.

3.2. Qolgan 70 % foizlik to‘lov shartnomani amal qilish muddati tugaganga qadar, ishlar(xizmatlar) bajarilgan bo‘lsa to‘liq amalga oshirishilishi shart.

3.3. Ko‘rsatilgan "Mahsulotlar"uchun pul ko‘chirish yo‘li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

#### **4. SHARTNOMANING BAJARILISHI**

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o‘z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta‘minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Mahsulotlar"ni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtma"ching Hisob-kitob hujjatida g‘aznachilik bo‘limmalarining shtampida ko‘rsatilgan sana "Mahsulotlar"ga haq to‘lash bo‘yicha "Buyurtmachi" majburiyatları bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko‘rsatilgan "Mahsulotlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Mahsulotlar"ko‘rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdag'i ko‘rsatilmagan "Mahsulotlar"o‘rnini to‘ldirish sifatida qaralmaydi va ko‘rsatilmagan "Mahsulotlar"ning o‘rn'i to‘ldirishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo‘yicha ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko‘rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas‘ul xodimi tomonidan dalolatnomada bo‘yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko‘rsatilgan "Mahsulotlar"miqdori, ularning sifati ko‘rsatiladi.

4.7. Shartnomada nazarda tutilgan "Mahsulotlar" ko‘rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko‘rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko‘rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarining buyurtmanomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish daftarni yuritadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Mahsulotlar"ning tegishli qismlarini ko‘rsatish sanasini o‘zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko‘rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

#### **5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Ko‘rsatilayotgan "Mahsulotlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto‘g‘ri aniqlanishi, ularning qiymati noto‘g‘ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko‘rsatilayotgan "Mahsulotlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto‘g‘ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

5.2. Agar ko‘rsatilgan "Mahsulotlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko‘rsatilgan, sifati zarur darajada bo‘lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

5.3. "Mahsulotlar"ko‘rsatish bo‘yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan "Mahsulotlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to‘laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Mahsulotlar" etkazilmasligi natijasida etkazilgan zararni to‘laydi.

5.4. "Mahsulotlar" etkazish kechiktirilgan yoki to‘liq ko‘rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko‘rsatilmagan "Mahsulotlar"qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

Penya to‘lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Mahsulotlar"ko‘rsatish muddati kechiktirilishi yoki to‘liq ko‘rsatilmasligi tufayli etkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko‘rsatilgan "Mahsulotlar"uchun o‘z vaqtida haq to‘lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to‘laydi, biroq bu kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli shartnoma bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma bo‘yicha shartnoma majburiyatları bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko‘rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan shartnomaning

"Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida etkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariiga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar maxsulotlar narxi yukori deb topilgan takdirda urtadagi fark tovar etkazib beruvchi tomonidan koplanadi.

## 6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

## 7. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

7.2 Shartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi konun xujjalari normalariiga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilishi mumkin.

7.3 Mazkur shartnoma 242477500 so'mlik № 14- sonli shartnoma 2022 yil «06» iyulda 2 nusxada tuzilgan bo'lib 2022 yil "06" iyuldan 2022 yil «31» dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, hududiy g'aznachilik bo'limlaridan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## 8. FORS-MAJOR.

8.1. Taraflardan biri shartnomanini engib bo'lmaydigan kuch ya'nini, favqulodda va muayyan sharoitda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-xavo sharoiti, xukumat tadbirlarida xokimiyat organlarining qarorlari, xarbiy nizolar, ichki tartibsizliklar va boshka tabiiy ofatlar) tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo'lmaydi.

8.2. Mazkur shartnoma bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar "O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonun bo'yicha javobgar bo'ladi.

## 9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha iqtisodiy sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

9.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.)

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI «Ijrochi»

"YUPITER ZAR" MCHJ

Bulung'ur shahri  
x/r 20208000400742829001

Trastbank Samarkand filiali  
MFO 01097 STIR 304634014

«Buyurtmachi»

Bulung'ur tuman Xalq ta'limi bo'limi

Manzil: Bulung'ur shaxri Oqtepa ko'cha 105

Tel./faks 66-442-21-14

sh/h: 100022860182067092100075072

byudjetdan mablag' oluvchi STIRi 200731249

OKED 92300

G'aznachilik boshqarmasi nomi Samarkand viloyati bo'yicha

G'aznachilik Boshqarmasi

G'azna h/v 23402000300100001010

Bankning nomi Markaziy bank XKKM Toshkent shaxar bosh Boshqarmasi

MFO/00014

g'aznachilik boshqarmasi STIRi 201122919

Mudir:

Z.Aliqulova

Direktor:

Д.Бакаев





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI  
BULUNG'UR TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH  
MARKAZI

Bulung'ur tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy,  
tel.: (998 66 442 12 66), el.pochta: Bulung'uryurmarkaz@adliya.uz

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIغا  
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**№XC18168360**

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihani nomi: xizmat ko`rsatish

Bulung'ur tuman Xalq ta'lifi bo'limi raxbari Z Aliqulova va Jupiter zar MCHJ o'rtaida Mebel jihozlarini etkazib berish xizmati bo'yicha 2022 yil 06 iyul kuni tuzilgan umumiy summasi 242 477 500 (ikki yuz qirq ikki million to'rt yuz etmish etti ming besh yuz) so'm bo'lgan 14-sonli shartnomasi to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot  
Bulung'ur tuman xalq ta'lifi bo'limi tomonidan 2022-yil 06-iyul kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdag'i "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning 10-moddasi talablariga muvofiq tuzilgan. Shartnomada belgilangan munosabatlар O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining xizmat ko'rsatisht shartnomasi to'g'risidagi normalar bilan tartibga solingan va taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Bulung'ur tuman yuridik xizmat  
ko`rsatish markazi bosh yuristkonsulti



Sh Shermatov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 112068 на приобретение Булунғур туман  
ХТБ га қарашли мактабларга мебел жиҳозлари сотиб олиш**

Способ проведения электронный

Дата 01.07.2022

Время рассмотрения 01.07.2022 19:34

Конкурсная комиссия Булунгур туман ХТМФМТТЭ булими, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Член комиссии</b>	MAMAYEV NE'MATILLO FARXODOVICH	бош мухандис	халқ таълими
<b>Член комиссии</b>	SUBANOV XUSNIDDIN SHUXRATOVICH	АКТ ни жорий этиш ва ривожлантириш шўъба бошлиғи	Халқ таълими бўлими
<b>Председатель комиссии</b>	GO'BAYEVA UMIDA USMANKULOVNA	Мудир ўринбосари	Халқ таълими бўлими
<b>Секретарь комиссии</b>	NORMATOV RABBIMQUL QO'CHQOROVICH	мутахассис	Булунғур Халқ таълими бўлими
<b>Член комиссии</b>	G'AZIYEV SODIKJON G'AYBULLAYEVICH	Таълим сифати мониторинги ва аттестация бўлим бошлиғи	Халқ таълими бўлими
<b>Член комиссии</b>	XUJAMBERDIYEV BEGMURAT ERKINOVICH	Бош бухгалтер	Халқ таълими бўлими

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 01.07.2022 года № лота 112068.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Стеллаж библиотечный</b>
Подробное описание	ЛДСП материалдан ёки акрил материалдан 1800 мм X 700 мм x 250 мм
Количество товара	100.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	600 000.00
Стартовая сумма	60 000 000.00
Валюта	UZS

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Доска меловая</b>
Подробное описание	Доска школьная 3*1 м меловая, зеленая. Меловая поверхность зеленого цвета для письма мелом.
Количество товара	15.00
Единица измерения	

Цена товара (услуги) за единицу	1 500 000.00
Стартовая сумма	22 500 000.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Стол ученический
Подробное описание	Үқувчилар учун стол стул жамланмаси:Стол 1 дона, стул 2 дона. Стол баландлиги 760мм, кенглиги 1200мм, эни 500мм. Каркас 25x25x1,2мм булган квадрат металл трубадан иборат, Металл квадрат учлари полиэтилен копоклари билан қопланган, Стол тәпаси, экран ва полкаси ЛДСПдан тайёрланган, Порошковой краскада, Стул ўтиргич баландлиги 460мм, эни 360мм. Каркас квадрат металлдан 20x20x1,2мм тайёрланган, Металл квадрат учлари полиэтилен қопқоқ билан ёпилган, Ўтиргич ва сүянчиқ пресланган фанерадан тайёрланган бўлиши керак 5-11 синфлар учун
Количество товара	95.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	670 000.00
Стартовая сумма	63 650 000.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Стол ученический
Подробное описание	Үқувчилар учун стол стул жамланмаси:Стол 1 дона, стул 2 дона. Стол баландлиги 540мм, кенглиги 1200мм, эни 500мм. Каркас 25x25x1,2мм булган квадрат металл трубадан иборат, Металл квадрат учлари полиэтилен копоклари билан қопланган, Стол тәпаси, экран ва полкаси ЛДСПдан тайёрланган, Порошковой краскада, Стул ўтиргич баландлиги 340мм, эни 290мм. Каркас квадрат металлдан 20x20x1,2мм тайёрланган, Металл квадрат учлари полиэтилен қопқоқ билан ёпилган, Ўтиргич ва сүянчиқ пресланган фанерадан тайёрланган бўлиши керак 1-4 синфлар учун
Количество товара	175.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	630 000.00
Стартовая сумма	110 250 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Корхонанинг моддий техник базаси тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Жиҳоз ва асбоб ускуналари рўйхати (Жавобгарлик талабгор зиммасида)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"STEKLOPLASTIK"	20	Маълумот тақдим килинмоқда	15	Экспертная		
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	20	Маълумот мавжуд	20	Экспертная		
YUPITER ZAR MChJ	20	хужжатлар тақдим этилади	20	Экспертная		
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	20	мавжуд	10	Экспертная		

Критерий №2 Ишчи ходимлар түғрисида тўлиқ маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишга қабул қилинганлиги түғрисидаги буйруқ ва меҳнат дафтарчаларидан кўчирмалар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"STEKLOPLASTIK"	10	Маълумот тақдим килинмоқда	10	Экспертная		
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	10	Мавжуд	6	Экспертная		
YUPITER ZAR MChJ	10	хужжатлар тақдим этилади	10	Экспертная		
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	10	мавжуд	7	Экспертная		

Критерий №3 Шу соҳада олдин қилинган ишлар руйхати ва буюртмачилар берган тавсифномалари

Тип: Текстовое значение

Описание: Товарлар руйхати ва тавсифномалар(Зарур)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"STEKLOPLASTIK"	10	Маълумот тақдим килинмоқда	10	Экспертная		
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	10	Мавжуд	5	Экспертная		
YUPITER ZAR MChJ	10	суралган хужжатлар тақдим этилди	10	Экспертная		
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	10	мавжуд	10	Экспертная		

Критерий №4 Максулотга бериладиган кафолат муддати

Тип: Текстовое значение

Описание: Кафолат хати(Зарур)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"STEKLOPLASTIK"	10	Маълумот тақдим килинмоқда	7	Экспертная		
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	10	2 йил	8	Экспертная		
YUPITER ZAR MChJ	10	хужжат илова килинди	10	Экспертная		
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	10	мавжуд	10	Экспертная		

Критерий №5 684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: кафолат хати зарур

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"STEKLOPLASTIK"	10	Маълумот тақдим килинмоқда	8	Экспертная		
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	10	Маълумотнома мавжуд	10	Экспертная		
YUPITER ZAR MChJ	10	хужжатлар тақдим этилади	10	Экспертная		
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	10	мавжуд	8	Экспертная		

Критерий №6 Корхона низоми, гувохнома , Соликдан карзи йуклиги хакида маълумотнома , инсофсиз ижрочиликни ягона реестрида йуклиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхона низоми, гувохнома , Соликдан карзи йуклиги хакида маълумотнома (Зарур)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"STEKLOPLASTIK"	20	Маълумот тақдим килинмоқда	11	Экспертная		
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO	20	Маълумотнома мавжуд	11	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SANOATI" QK						
YUPITER ZAR MCHJ	20	Талаб этилган хужжатлар хаммаси илова килинди	20	Экспертная		
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	20	мавжуд	19	Экспертная		

Критерий №7 Талабгор моддий таъминланганлиги ва йиллик маблаг айланмаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Йиллик маблаг айланмаси ва x/r колдиги(Зарур)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"STEKLOPLASTIK"	20	Маълумот тақдим килинмоқда	20	Экспертная		
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	20	Мавжуд	20	Экспертная		
YUPITER ZAR MCHJ	20	хужжат илова килинди	20	Экспертная		
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	20	мавжуд	16	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
"STEKLOPLASTIK"	256 400 000.00	238 245 000.00	30.06.2022 10:57:09	18.82
YUPITER ZAR MCHJ	256 400 000.00	242 477 500.00	01.07.2022 11:50:04	18.49
ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	256 400 000.00	224 150 000.00	01.07.2022 15:17:36	20.00
MChJ "JIASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	256 400 000.00	240 647 500.00	30.06.2022 17:14:15	18.63

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"STEKLOPLASTIK"	64.8	18.81676	83.61676
YUPITER ZAR MCHJ	80	18.48831	98.48831

ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI	64	20	84
MChJ "JASHILI-GULISTON KIMYO SANOATI" QK	64	18.62891	82.62891

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 112068 от 01.07.2022 года на приобретение Булунғур туман ХТБ га қарашли мактабларга мебел жиҳозлари сотиб олиш определила победителем:

YUPITER ZAR MCHJ  
304634014

и резервный исполнитель: ЧП MARVARID MEBELLAR MAJMUASI (308546374)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	MAMAYEV NE'MATILLO FARXODOVICH	Согласен	
Председатель комиссии	GO'BAYEVA UMIDA USMANKULOVNA	Согласен	
Член комиссии	G'AZIYEV SODIKJON G'AYBULLAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	SUBANOV XUSNIDDIN SHUXRATOVICH	Согласен	
Член комиссии	XUJAMBERDIYEV BEGMURAT ERKINOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП